

## TILNI TURLI DARAJADA EGALLAGAN GURUHLAR UCHUN INNOVATSION DIDAKTIK MATERIALNI ISHLAB CHIQISH

**Mo'minova Oydin Qurbanovna**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, f.f.n.

**Abdunazarov Otabek**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

[aydin\\_muminova@mail.ru](mailto:aydin_muminova@mail.ru)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada turli darajali guruhlarda o'zbek tilini chet tili sifatida o'qitish jarayonida chet tilning leksik ko'nikmalarini shakllantirish xususiyatlarini ko'rib chiqish, o'quv jarayonini takomillashtirishning oqilona usullarini aniqlash va ishlab chiqish hamda talabalarning kommunikativ o'quv faoliyatini faollashtirishga asoslangan leksik nutq ko'nikmalarini shakllantirish. Tilni bilish darajasi turlicha bo'lgan talabalarga leksik materialni muvaffaqiyatli o'zlashtirish imkonini beradigan tizimli mashqlar ishlab chiqildi va nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan materiallar taklif qilinadi.

**Kalit so'zlar:** turli darajali, didaktik materiallar, tizimli mashqlar, kommunikatsiya, lug'at, mentalitet, moslashuv matnlari.

O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitiladigan guruhlarda asosan tilni turli darajada egallagan talabalar tashkil etadi. Afsuski, o'zbek tilini chet til sifatida o'qitish metodikasida turli darajali guruhda ishlash bilan bog'liq muammolar yetarlicha o'rganilmagan hamda leksik ko'nikmalarini shakllantirish uchun maxsus mashqlar tizimini hisobga oladigan didaktik materiallar bilan ta'minlanmagan.

Ushbu maqolada turli darajadagi guruhda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha darslarda foydalаниш uchun ishlab chiqilgan materiallar taklif qilinadi. Bunga o'quv jarayonida yakuniy maqsadga faqat talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holdagina erishish mumkin. Agar biz talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olmasak, kuchli talabalar tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishni yo'qotadi, kuchsizlari esa o'z fikrlarini bildirishdan tortinadigan shaxslarga aylanadilar va (ko'pincha bunday kuchsizlar fikrlashni xohlamaydigan, quruq yodlash, ko'chirish kabi ishlarni bajaradigan talabalarga aylanib qoladi). Biz turli darajali ta'limni "... har bir talaba dasturning alohida fanlari bo'yicha o'quv materialini turli darajada, biroq asosiy darajadan past bo'limgan holda o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan uning individual xususiyatlariga qarab o'quv jarayonini shunday tashkil etish"

(1, 38) deb ta'riflashimiz mumkin. Turli darajali guruhda ishlayotgan o'qituvchi ko'pincha an'anaviy usullarga tayangan holda guruh ichidagi talabalarni farqlashni tashkil qiladi. Odatda ish ko'pchilik talabalarga qaratilgan boladi: agar ular kuchli talabalar bo'lsa, kuchsizlar qiyonaladi (ularga yetarlicha e'tibor berilmaydi), agar ko'pchilikni kuchsiz talabalar tashkil etsa, kuchlilar individual topshiriq oladi va alohida ishlay boshlaydi va shunday qilib ular guruhdan ajralib qoladi. Darajalar xilmassisligi holatida esa o'qituvchining vazifasi talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga, bilishga bo'lgan qiziqishini faollashtirishga va qiziqtirishga yordam beradigan qulay psixologik muhitni yaratishga imkon beradigan o'qitish shakllari va usullarini tanlashdan iborat boladi.

Ushbu ishning maqsadi turli darajali guruhlarda o'zbek tilini chet tili sifatida o'qitish jarayonida chet tilning leksik ko'nikmalarini shakllantirish xususiyatlarini ko'rib chiqish, o'quv jarayonini takomillashtirishning oqilona usullarini aniqlash va ishlab chiqish hamda talabalarning kommunikativ o'quv faoliyatini faollashtirishga asoslangan leksik nutq ko'nikmalarini shakllantirish, tilni bilish darjasini turlicha bo'lgan talabalarga leksik materialni muvaffaqiyatli o'zlashtirish imkonini beradigan tizimli mashqlarni ishlab chiqish va taqdim etishdan iborat.

Taklif etilayotgan material "Madaniyatlararo kommunikatsiyaning lingvistik ta'minoti", "Filologiya va tillarni o'qitish", "Siyosatshunoslik" va boshqa mutaxassisliklarda tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan. Leksik material o'z ichida mavzuga oid matnlari mavjud bo'lgan qiyidagi mavzuiy bo'limlar ko'rinishida bo'ladi: ("Muzokaralar", "Zamonaviy dunyoda xorijiy til", "Ishbilarmonlik muloqoti sirlari", "Ishbilarmon odobi", "Millatlararo muloqotda ommaviy axborot vositalarining o'rni", "Zamonaviy diplomat", "Bayramlar va an'analar".

Leksik material bilan samarali ishslash va uni leksik-grammatik mashqlar majmuasi orqali ishlab chiqish uchun har bir matnning hajmi cheklangan (2700-3000 belgi). Taklif etilayotgan leksik-grammatik mashqlar majmuasi I kurs talabalari uchun chet til sifatida o'zbek tilidagi dastur talablarini inobatga olgan holda tuzilgan. Darsda barcha talabalar teng ishtirok etishi uchun turli darajali guruhda ishni qanday tashkil qilish kerakligini biz nutq amaliyoti darslarida "Milliy muzokara uslublari" matni bilan ishslash misolida ko'rsatamiz. Nutqning leksik tomonini o'rgatishga alohida e'tibor berish kerak bo'ladi, chunki boy lug'atga ega bo'lish nutq faoliyatining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ularsiz mustahkam til bazasini yaratish mumkin emas.

Talabalar aloqa va munosabatga kirishish uchun materialni o'zlashtirishlari kerak. Shuning uchun birinchi bosqichda mavzuning asosiy lug'atini o'rganish taklif etiladi (so'zning ma'nosi, formal xususiyatlari bilan tanishish). O'qituvchining yangi lug'atni tushuntirishga tayyorgarligi quyidagicha bo'ladi: qiyinchiliklarni aniqlab olish uchun yangi lug'at tahlili o'tkaziladi, yangi so'zlarning soni va ular bilan tanishishni

tashkil etish shakli belgilanadi, so‘z ma’nosini anglash usullari aniqlanadi, har bir so‘zning sharhi beriladi va shunga mos illyustrativ material tanlanadi, boshlang‘ich tayyorgarlik uchun mashqlar turlari va ularni amalga oshirish ketma-ketligi belgilanadi.

Yangi so‘zning semantizatsiyasi turli usullar bilan amalga oshirilishi mumkin (tarjima qilinmaydigan va tarjima qilinadigan). Albatta, tarjima vaqtini tejaydi va ulardan foydalanish oson, biroq u tillararo interferensiyani oshiradi. Bizning ishlanmamizda taklif etilgan leksik material ma’lum birliklarning qo‘llanilishidagi o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda taqdim etiladi. Shunday qilib, ko‘rib chiqilayotgan matn uchun faol lug‘at quyidagicha taklif qilinadi: *1-topshiriq*. Matnda uchraydigan so‘z va iboralar bilan tanishing. Notanish so‘zlarning ma’nosini lug‘atdan toping. *Tajovuzkor, tajovuz, tajovuzkor so‘zsiz ta’sir qiladi / nimaga ta’sir qiladi? kimga? kabi; ochiqchasiga gapirmoq, xayrixoh, xayrixohlik, maishiy muammolar, o’tkir burchaklardan qochish, da’vo, bosim, ochiqlik, samimi, nimani himoya qilish?, muzokaralar, muzokarachilar kun tartibining asosiy masalasiga nimani kiritishadi? xushmuomala, salomlashish, salomlashishda nimaga e’tibor beriladi? nima ustida ishslash? professional punktuallik, nimani amalga oshirish? OAVlarining g‘oyat darajada aniqligi, puxtaligi, reglamentga rioya qilish, nimani kelishish? nimani talab qilish, rasmiyatçilik, nimani baholash?*

Lug‘at har qanday nutq faoliyati - tinglash, gapirish, o‘qish va yozishning zaruriy tarkibiy qismidir. Shuning uchun faqat leksik minimumni o‘rganib chiqqandan so‘ng, talabalar keyingi bosqichga o‘tishadi - matn bilan ishslash (avtonom o‘qish). Bir guruhdagi talabalar turli matnlarni (turli moslashuv darajasidagi matnlarni) o‘qiydilar. Bu vazifa mustaqil va yakka tartibda amalga oshiriladi. Har bir talaba o‘qishni samarali amalga oshiradi, matn bilan ishslashda individual usullarini qo‘llaydi. Avtonom o‘qish uchun talabalarga moslashishning turli darajalarida berilgan bir xil mazmundagi material taqdim etiladi. A matn murakkabroq, B matn soddaroq. Shuni ta’kidlash kerakki, soddalashtirish informativlik hisobiga bolmaydi, aks holda talabalar mavzuni teng muhokama qilishda qatnasha olmaydi. Matnlarni solishtiramiz.

*2-topshiriq.* A matnni o‘qing. Matn mazmuni bo‘yicha topshiriqlarni bajarishga tayyorlaning. **A Matn.** Milliy muzokara uslubi - milliy xarakter va madaniyat xususiyatlari, muzokaralarni tayyorlash va o‘tkazish jarayoniga ta’sir qiluvchi fikrlash, idrok va xatti-harakatlarning eng umumi xususiyatlari. Taklif etilayotgan matnlar internet manbalaridan olingan materiallarga asoslangan.

Amerikalik har doim muzokaralarga yaxshi tayyorlangan boladi va u professionallik, ochiqlik, mustaqillik va pragmatizm kabi fazilatlari bilan ajralib turadi. Amerikaliklar ochiqchasiga gapiradigan odamlardir, chunki ular halollik va ochiqlikni qadrlashadi, tezda maqsadga o‘tadilar va rasmiyatçilikka vaqt sarflamaydilar. Ular

eng asosiy masalaga e'tibor qaratishadi hamda savdolashishni bilishadi va yaxshi ko'rishadi. Ba'zi paytlarda o'z maqsadlariga erishish uchun shunday qat'iyat bilan harakat qilishadiki, hatto tajovuzkor va qo'pol bo'lib ko'rinishadi. Amerikaliklar ommaviy axborot vositalarini hurmat qilish ruhida tarbiyalangan, shu bois muzokaralar chog'ida matbuot bilan muloqotga katta e'tibor berishadi. Germaniya vakillari muzokaralarga tayyorgarlik ko'rishga katta e'tibor qaratib, o'z pozitsiyalarini puxtalik bilan ishlab chiqishadi. Ular kerakli natijaga erishishlariga ishonch hosil qilgandan keyingina muzokaralarga kirishadilar. Muzokaralarda nemislar tizimli va barcha tafsilotlarni sinchkovlik bilan ko'rib chiqqan holda, birin-ketin, oldindan kelishilgan kun tartibiga muvofiq ravishda masalalarni muhokama qilishni afzal ko'radilar. Ular muzokaralarni to'g'ri, o'z vaqtida olib boradilar va qoidalarga qat'iy rioya qiladilar. Nemislarning barcha takliflari aniq va ishbilarmonlikka xosdir. Nemislar muzokaralarga juda jiddiy yondashadilar va o'zlarining xatti-harakatlarida humor va hazillarga yo'l qo'ymaydilar. Nemislarga qaror qabul qilish uchun ko'proq vaqt kerak, chunki ular barcha mumkin bo'lgan variantlarni tekshirib ko'rib, har tomonlama tahlil qiladi. Ular qarorni qabul qilingandan keyin uni o'zgartirishni yoqtirmaydilar. Nemislar ularni amalga oshirishning keng qamrovli kafolatlarini olmasalar, shartnomani imzolamaydilar. Ular erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishda nihoyatda aniq va sinchkovlik bilan yondashadi va hamkorlaridan ham shuni talab qiladilar. Britaniyaliklarning fikricha, muzokaralardagi sherikning o'z pozitsiyasiga qarab, eng yaxshi yechim topiladi. Shu bilan birga, ular yetarlicha moslashuvchan va qarama-qarshi tomonning tashabbusiga bajonidil javob berishadi. Shuningdek, britaniyalik hamkorlar bilan muzokaralar puxta tayyorgarlik va muvofiqlashtirishni talab qiladi. Inglizlar muzokaralarni muhokama mavzusi bilan emas, balki kundalik muammolar (ob-havo, sport va boshqalar) bilan boshlashni xush ko'radilar. Ingliz vakillari ochiqchehra va xushmuomala bo'lsa ham, biroq qonunlarga qat'iy va so'zsiz rioya qilishadi. Inglizlar o'z manfaatlarini mohirlik bilan va samarali himoya qiladilar. Ingliz muzokarachilarining kuchi shundaki, ularning mamlakat, mavzu va muhokama qilinayotgan muammolar haqida mukammal bilimlaridir. Ular juda yuqori professional darajasi bilan ajralib turadi. Shu bois, muzokaralardagi vaziyatni sinchkovlik bilan tahlil qilib, prognozlar tuzishga qodir. Inglizlar uchun o'tkir burchaklardan qochish qobiliyati an'anaviy qobiliyatlardan sanaladi. "Menimcha", "Men o'ylaymanki", "Ishoning", "Ehtimol, men nohaqdirman" kabilalar inglizlarning sevimli iboralaridir.

**B matn.** Muzokaralarning milliy uslubi - madaniyat, tafakkur, idrok va xulq-atvorning milliy xususiyatlari. Ular muzokaralarni tayyorlash va o'tkazishga ta'sir qiladi.

Amerikalik har doim muzokaralarga tayyor bo'ladi. U professionallik, ochiqlik, mustaqillik va pragmatizm bilan ajralib turadi. Amerikaliklar halollik va ochiqlikni

qadrlaydigan odamlardir. Germaniya vakillari muzokaralarga tayyorgarlik ko‘rishadi. O‘z pozitsiyalarini puxtalik bilan ishlab chiqishadi. Ular kerakli natijaga erishishlariga ishonch hosil qilgan taqdirdagina muzokaralarga kirishadilar. Muzokaralarda nemislar tizimli va barcha tafsilotlarni sinchkovlik bilan ko‘rib chiqishadi. Oldindan kelishilgan kun tartibiga muvofiq ravishda masalalarni birin-ketin muhokama qilishni afzal ko‘radilar. Ular muzokaralarni to‘g‘ri, o‘z vaqtida olib boradilar va qoidalarga qat’iy rioya qiladilar. Nemislarning barcha takliflari aniq va ishbilarmonlikka xosdir. Nemislar muzokaralarga juda jiddiy yondashadilar va o‘zlarining xatti-harakatlarida humor va hazillarga yo‘l qo‘ymaydilar. Nemislarga qaror qabul qilish uchun ko‘proq vaqt kerak. Ular masalani har tomonlama tahlil qiladi va barcha mumkin bo‘lgan variantlarni tekshiradi. Nemislar qarorni qabul qilingandan keyin o‘zgartirishni yoqtirmaydilar. Nemislar ularni amalga oshirishning keng qamrovli kafolatlarini olmasalar, shartnomani imzolamaydilar. Ular erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishda nihoyatda aniq va sinchkovlik bilan yondashadi. Hamkorlaridan ham shuni talab qiladilar. Britaniyaliklarning fikricha, muzokaralardagi sherikning o‘z pozitsiyasiga qarab, eng yaxshi yechim topiladi. Shu bilan birga, ular yetarlicha moslashuvchan va qarama-qarshi tomonning tashabbusiga bajonidil javob berishadi. Shuningdek, britaniyalik hamkorlar bilan muzokaralar puxta tayyorgarlikni talab qiladi. Inglizlar muzokaralarni kundalik muammolar (ob-havo, sport va boshqalar) bilan boshlashni afzal ko‘radilar. Ingliz vakillari ochiqchehra va xushmuomala, ammo qonunlarga qat’iy va so‘zsiz amal qilishadi. Inglizlar o‘z manfaatlarini mohirlik bilan va samarali himoya qiladilar. Ingliz muzokarachilarining kuchi ularning mamlakat, mavzu va muhokama qilinayotgan muammolar haqida mukammal bilimlaridir. Ular juda yuqori professional darajasi bilan ajralib turadi. Ular muzokaralardagi vaziyatni diqqat bilan tahlil qilib, proqnozlar tuzishga qodir. Inglizlar uchun o‘tkir burchaklardan qochish qobiliyati an‘anaviy qobiliyatlardan sanaladi. Ingлизлarning yaxshi ko‘rgan iboralari: "Menimcha", "Men o‘ylaymanki", "Ishoning", "Ehtimol, men nohaqdirman".

Matnlardan ko‘rinib turibdiki, *B matnini* soddalashtirish sintaktik darajada sodir bo‘ladi. O‘zgarishlar grammatik tuzilmalarga taalluqlidir: qo‘shma gap o‘rniga sodda gap, bir bosh bo‘lakli gap o‘rniga ergash gap, so‘z birikmalari esa umumiy ma’noli so‘z bilan almashtiriladi, iboralar soddalashtirilgan va kam qo‘llaniladigan so‘zlar bilan almashtirilib, ularning ma’nosini ochib beruvchi iboralar bilan o‘zgartiriladi. Leksik darajada biz so‘zlarning tez-tez uchraydigan sinonimlar bilan almashtirilishini, tor ma’noli so‘zni kengroq ma’noli so‘z bilan yoki bir xil mavzuiy qatordagi so‘zlar bilan almashtirishni qayd etdik. Matndagi so‘zlarni almashtirish amalda uning axborot mazmunini kamaytirmaydi va barcha transformatsiyalarni soddalashtirishga olib keladi.

Matnlarni o‘qib, tarjima qilgandan so‘ng, barcha talabalar mavzu bo‘yicha teng miqdorda ma’lumot oladi va shuning uchun 3-topshiriqni bajarish orqali muhokamada qatnashishi mumkin. Matndan keyingi savollar soni cheklangan.

*3-topshiriq.* Matnga berilgan savollarga javob bering. 1. Milliy muzokara uslubi deganda nimani tushunamiz? 2. Qaysi mamlakatlarning milliy muzokara uslublari bilan tanishdingiz? 3. Amerikalik muzokarachilarning o‘ziga xos xususiyatlari qanday? 4. Amerikaliklar muzokaralar jarayonini qanday quradilar? 5. Germaniya delegatsiyasi bilan muzokaralar olib borish xususiyatlarini sanab bering. 6. Inglizlar bilan olib borilayotgan muzokaralar jarayonining nemislar va amerikaliklar bilan olib borilgan muzokaralaridan qanday farqi bor? 7. Muzokalarning qaysi xususiyatlari sizni hayratda qoldirdi? 8. Qaysi mamlakatlardagi muzokara jarayonlari haqida bilishni xohlaysiz, nima uchun?

Talabalar matn mazmunini qanday tushunganliklarini test yordamida tekshirish taklif etiladi (u boshqa turda ham bo‘lishi mumkin). Matn mazmunining izchilligini o‘rnatish uchun test (uni sinov zanjiri deb ataymiz) bajarish paytida ko‘p qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Talaba dastlab tayyor sintaktik birlikni ko‘rmaydi, u faqat berilgan unsurlardangina uni o‘zi yaratishi kerak. Nomlangan testda berilgan obyektlarning tartibini aniqlash taklif etiladi (gap bo‘laklari). Shuning uchun, misol tariqasida, biz, quyidagicha ko‘rinishda bo‘lgan test-zanjirini beramiz:

*4-topshiriq.* Zanjir bo‘ylab kerakli variantni tanlab, matnni tiklang. Yozma matnning qayta hikoyasini tayyorlang. 1. A) Muzokalarning milliy uslubi – bu milliy o‘ziga xosliklar B) rasmiyatçilik haqida. Ular quyidagilarga e’tibor qaratadilar: ommaviy axborot vositalariga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalanganlar. 2. A) pozitsiya. Ular faqat B) professionallik, ochiqlik, mustaqillik, C) madaniyat, tafakkur, idrok va xulq-atvorga ega bo‘lgandagina muzokaraga kirishadilar. Amerikalik har doim 3. A) eng keng tarqalgan fikrlashning o‘zgachaligiga, B) muzokalarga professional tarzda tayyorlangan. Unga xarakterli bolgan B) o‘z maqsadlari, ular qanday qilib savdolashishni bilishlari va yaxshi ko‘rishlari. 4. A) ochiqlik, mustaqillik, pragmatizm. Amerikaliklar gapni to‘g‘ri yuzga aytishadi B) ba’zida juda qat’iy, hatto tajovuzkor ko‘rinishadi B) o‘z pozitsiyalarini sinchkovlik bilan ishlab chiqishadi. 5. A) agar ular amalga oshirishning to‘liq kafolatlarini olmasalar. B) sherikning o‘ziga nisbatan tutgan pozitsiyasiga qarab, C) odamlar halollik va ochiqlikni qadrlaydilar. Maqsadga qat’iyat bilan intiladilar. 6. A) muzokalarni tayyorlash va o‘tkazish jarayoniga ta’sir ko‘rsatish. B) muzokaralar va eng yaxshi yechim topiladi. C) Muzokalarda matbuot bilan muloqotga katta e’tibor beradilar. 7. A) Germaniya vakillari ishonch hosil qilganlarida muzokalarni boshlaydilar. B) qaror. Shu bilan birga ular ancha moslashuvchan. B) reglament. Nemislarning barcha takliflari sof biznesdir D) ularga kerakli natija. 8. A) xatti-harakatlarida humor va hazilga yo‘l qo‘ymaslik. B) variantlar.

Bir marta qabul qilingan qarorni o‘zgartirishni yoqtirmaslik C) ular kerakli natijani olishlarini. Nemislar masalalarini muhokama qilmoqda 9. A) qarama-qarshi tomon. Shu bilan birga, muzokaralar. B) kun tartibi masalalalari izchil. Ular hamma narsani sinchiklab ko‘rib chiqadilar C) Qoidaga ko‘ra, nemislar shartnomani imzolamaydilar. A) tafsilotlar. Ular muzokaralarni to‘g‘ri, o‘z vaqtida olib boradi va qoidalarga qat’iy rioya qiladi. B) oldindan kelishilgan shartga qat’iy rioya qilgan holda C) inglizlar muzokaralarni predment bo‘yicha emas, balki boshqacha boshlashni ma’qul ko‘radi 11. A) nemislarga qaror qabul qilish uchun ko‘proq vaqt kerak B) vakillar xushmuomala va xayrixoh, ammo C) ularning takliflari aniq va o‘ziga xos. Nemislar juda jiddiy qaraydilar.

12. A) erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishda va xuddi shu B) muzokaralarga. Ular sinchkovlik bilan tahlil qiladilar va sinab ko‘rishiadi. D)eng yaxshi yechimlarni Shu bilan birga, ular ancha moslashuvchan va 13. A) variantlarga tayyor. Ular kelishuvlarni va bir xil B) munozaralarni sinchkovlik bilan bajaradilar, lekin kundalik muammolardan (ob-havo, sport va boshqalar). C) variantlar, ular bir marta qabul qilingan qarorni o‘zgartirishni yoqtirmaydilar, 14. A) tayyorgarlik va muvofiqlashtirish. Ular boshlashni afzal ko‘radilar B) sheriklaridan talab. Inglizlar bajonidil javob berishadi B) o‘z manfaatlarini himoya qilish. Muzokarachilarining kuchi.

15. A) qarama-qarshi tomonning tashabbusi. Muzokaralar bilan B) Inglizlar uchun an'anaviy - bu qochish qobiliyati. C) Nemislar muzokaralarda muhokama qilishni afzal ko‘radi. 16. A) “menimcha, o‘ylashimcha, balki men nohaqdirman” B) juda yuqori professional darajasi bilan ajralib turadi. C) ularni puxta tayyorlash va muvofiqlashtirish kerak. 17. A) xushmuomala va do‘stona, lekin juda qattiq B) ingliz vakillari xushmuomala va samimiyl, lekin juda qattiq C) oldindan kelishilgan kun tartibiga qat’iy muvofiq. 18. A) qonunlarga rioya qilish. Inglizlar mohirlik bilan va samarali himoya qiladilar B) Inglizlarning eng sevimli iboralari "menimcha". C) sof ishbilarmonlik va o‘ziga xoslik. 19. A) fikrlash, idrok etishning eng umumiyl xususiyatlari B) Ingliz muzokarachilarining kuchli tomoni C) o‘z manfaatlari. Ular professionallar, vaziyatni tahlil qilishni biladilar. 20. A) Ular juda yuqori professional darajasi bilan ajralib turadi. B) bashorat qilish. Inglizlar o‘tkir burchaklardan qanday qochish kerakligini bilishadi. C) muhokama qilinayotgan mamlakat, mavzu, muammolarni mukammal bilish.

Ushbu vazifani mustaqil bajarish talabalarning bilish faolligini rivojlantiradi, bilimlarni amaliy qo‘llashni yaxshilaydi va o‘rganilgan materialni mustahkamlaydi. Talabalarning material qanchalik yaxshi o‘zlashtirilganligini tushunishga vaqtiali bo‘ladi. Bundan tashqari, test topshiriqlaridan foydalanish talabalarni har bir darsga tayyorlanishini rag‘batlantiradigan va o‘rganilayotgan fanga bo‘lgan ishtiyoyqini

oshiradigan juda samarali vositadir. Keyingi bosqichda talabalar eng keng tarqalgan topshiriqlardan birini, ya’ni qayta hikoya qilish topshiriladi. Bunday vaziyatda talabalar duch keladigan asosiy qiyinchilik katta hajmdagi matnni qayta ishlash va yodda saqlashdir. Test zanjirining to‘g‘ri javoblarini tanlab, talaba qayta hikoya qilish uchun tayyor matnni olib, uni tayyorlashi kerak.

Leksik materialni yanada rivojlantirish va mustahkamlash talabalar uchun o‘zbek tili grammatikasining eng qiyin mavzulari bo‘yicha leksik va grammatic mashqlarni bajarish jarayonida sodir bo‘ladi: sinonimlar/antonimlardan foydalanish, fe’llar va fe’l shakllaridan foydalanish, so‘z birikmasi bilan konstruksiyalar tuzish, sintaktik sinonimiya. Boy lug‘at talabalarga ma’lum bir muloqot sharoitida eng mos so‘z, ibora yoki nutq klishesini topishga imkon beradi. Sinonim / antonimlarni tanlash bo‘yicha mashqlar talabalarning tilning tizimli tabiatini ko‘rishga, mavzu bo‘yicha leksik minimumni o‘zlashtirishga, o‘rganilayotgan lug‘atni faol foydalanish holatlari bilan uyg‘unlashtirishga va kengaytirishga yordam beradi. “Minimal lug‘at har bir kishi uchun foydalidir, uni kengaytirish individual va asosan mustaqil ishlashga bog‘liqdir” (3, 9). O‘qituvchining vazifasi esa talabalarga ushbu individual ishni o‘rgatishdan iborat. Belgilangan grammatik mavzuni ishlab chiqish uchun mashqlar turli yo‘llar bilan tuzilishi mumkin: masalan, 1. Matnda ajratilgan so‘z va iboralar uchun sinonimlarni (antonimlarni) tanlang. 2. Sinonimlarni (antonimlarni) bog‘lang. 3. Matnda ajratilgan antonim (sinonim) so‘zlarni ishlatib, savollarga javob bering. 4. Matndagi ma’lumotlarga sinonim bo‘lgan gaplarni toping. “Muzokaraning milliy uslublari” matni uchun topshiriq namunasi:

*5-topshiriq.* Tagiga chizilgan so‘z va iboralarga sinonimlar tanlang.

1. Amerikaliklar masalani tez *tushunadi* va rasmiyat chilikka vaqt sarflamaydi.
2. Vakillar asosiy masalaga e’tibor *qaratadilar*.
3. Ular o‘z maqsadlarini amalga oshirishga qat’iyat bilan *harakat qilishadi*.
4. Nemislar chuqur *tahlil qiladilar*.
5. Nemislar, agar ularni amalga oshirish bo‘yicha keng qamrovli kafolatlar olmasa, shartnomani imzolashga *shoshilmaydi*.
6. Ular juda yuqori professional darajasi bilan *ajralib turadi*.
7. Ingliz muzokarachilarining kuchi ularning muhokama qilinayotgan masalalarni *mukammal bilishi*.

O‘zbek tilining chet tili sifatida o‘qitilishi kursida fe’l alohida o‘rin egallaydi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, chet til talabalar uchun og‘zaki mavzular murakkabroq, chunki fe’lning shakllari turli xil semantikasi bilan ajralib turadi, ular turli xil sintaktik aloqalarga kiradi va har xil rasmiy tuzilishdagi jumlalarning bir qismidir. “Predikatni ifodalash” mavzusidagi topshiriqni, masalan, quyidagicha shakllantirish mumkin:

1. Nuqtalar o‘rniga zarur fe’llarni qo‘ying.
2. Qavs ichidagi fe’llar bilan gaplarni to‘g‘ri shaklda to‘ldiring.
3. Matn materialidan foydalanib, ushbu fe’llar bilan gaplar tuzing.

Taqdim etilgan matnning topshirig‘i quyidagicha bo‘ladi: *6-topshiriq*. Nuqtalar o‘rniga zarur fe’llarni qo‘ying.

1. Nemislar muzokaralarga tayyorgarlik ko‘rishga katta . . . . .
2. Ular puxtalik bilan o‘z pozitsiyalarini . . . . .
3. Ular istalgan natijaga ishonch hosil qilgan taqdirdagina muzokaralarga . . . . .
4. Nemislar kun tartibi oldindan . . . . .
5. Muzokaralarda savollar qat’iy birin-ketin . . . . .
6. Barcha tafsilotlar diqqat bilan . . . . .
7. Ular barcha mumkin bo‘lgan variantlarni qaror qabul qilingandan keyin . . . . .
8. Muzokaralar to‘g‘ri, o‘z vaqtida, qat’iy reglament bilan . . . . .
9. Nemislar muzokaralarni olib borish jarayonida juda jiddiy ... va hech qachon . . . . .

Bunday mashqlarni tizimli ravishda bajarish juda muhimdir, chunki bu talabalarga ushbu grammatik hodisani o‘zlashtirish bo‘yicha bilimlarini chuqurlashtirishga va shunga mos ravishdagi nutqiy vaziyatlarda fe’l shakllaridan erkin foydalanishga imkon beradi. Shuni ta’kidlash kerakki, bu turdagи gaplardagi sintaktik bog‘lanishlarni aniqlash mahorati talabalar tomonidan birdaniga rivojlanmaydi. Talabalar tomonidan fe’l to‘g‘ri tanlanadi, lekin so‘z birikmasi hosil qilganda zamon va kelishik qo‘sishchalarini qo‘sishda ko‘pincha qiyinchilik tug‘iladi. Xatolarga yo‘l qo‘ymaslik uchun talaba birlashuvchi so‘zning ma’nosи, zamonи va sonini tanlashni bilishi kerak, bu u tegishli bo‘lgan asosiy qismning otiga (birinchi zanjir) va holat – fe’l-predikatga bog‘liq (ikkinchi zanjir). Ushbu mavzuni chuqur o‘zlashtirish o‘zbek tilini bilish darajasini yanada oshirish uchun juda muhimdir. So‘z bilan sintaktik konstruksiyalarni munosabatga kiritish mexanizmini tushunib olish va mashq qilish juda muhim, chunki ular nutqda ko‘p qo‘llaniladi.

*7-topshiriq*. Qo‘shma gaplarni sodda gaplarga aylantiring.

1. Qarshi tomon boshlagan muzokara jarayoni shunday aniq bo‘ldiki, hatto hukumat ta’sir ko‘rsata olmadi.
2. Yig‘ilishda delegatsiya vakillari o‘z fikrlarini bildirdilar, lekin bunday qarorning qabul qilinishini tasavvur ham qila olmadilar.
3. Mezbonlar qoidalarni taklif qilgan bo‘lsa ham, vakillar ularga amal qilishni xohlamadi.
4. Yig‘ilish dasturi oldindan tanishish uchun taklif qilinmagan bo‘lsa-da, kun tartibiga to‘g‘ri keldi.
5. Ular kerakli natijaga erishishlariga ishonch hosil qilsa, muzokaraga kirishadilar.
6. Inglizlar muhokama qilinayotgan mavzu va muammolardan yaxshi xabardor bo‘lsa ham, taklifnoma bilan yana bir bor tanishib chiqdilar.

Talabalarni o‘qitishdan maqsad lingvistik kompetensiyaga asoslangan kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdir. Bunga, ayniqsa, *8-topshiriqning* bajarilishi va tushunilishi yordam beradi (1.Sodda gaplarni sinonimik murakkab gaplar bilan almashtiring. 2.Murakkab gaplarni sinonimik sodda gaplar bilan almashtiring. 3.Bog‘lovchi qo‘shma gaplardan foydalanib, ikkita sodda gapni bitta murakkab gapga aylantiring. 4.Murakkab gaplarda yetishmayotgan tobe bog‘lovchilarni to‘ldiring).

O‘zbek tilining sintaktik sinonimlarini (yoki parallel sintaktik tuzilmalarni) o‘rganish o‘zbek tilining chet tili sifatidagi metodologiyasida katta nazariy va amaliy qiziqish uyg‘otadi, chunki sinonimiya tildagi tizimli munosabatlarning eng yorqin ko‘rinishlaridan hamda tilni ifodali vositalar bilan boyitish manbalaridan biridir. Hozirgi ona tili ta’limi yoshlarning nutqiy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishni bosh omil deb hisoblar ekan, qo‘shma gap sinonimiyasi ustida doimiy ravishda amaliy-ijodiy ishlash talab etiladi. (3, 165) Ushbu mavzu bo‘yicha ishlar til taraqqiyoti qonuniyatlarini, matn tili va uslubining xususiyatlarini tushunishga, talabalarning yozma va og‘zaki nutqida faol ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, nutqning ifodali vositalarining boyligiga kirishni osonlashtiradi va ularni tizimda ifodalash imkonini beradi. Sintaktik sinonimiya mashqlari o‘ziga xos lingvistik tajriba bo‘lib, u sintaktik konstruksiyalarni o‘zgartirishga asoslangan. Bunday mashqlarni bajarish o‘quvchilarining aqliy faoliyatini faollashtiradi. Talabalar bu konstruksiyalarning sinonim ekanligini, ular o‘rtasida transformatsion munosabatlar mavjudligini aniqlashni o‘rganadilar (4, 133) hamda matnda ifodalangan so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini va kontestdagi ma’nosini solishtirish, mantiqiy fikrlashga e’tibor qaratish, ma’lumotlarning ichidan muhimini ajaratib olish, matn haqida xulosa bera olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar (5, 2).

“Muzokaralar olib borishning milliy uslublari” matni uchun taklif qilingan topshiriqlarga misol: *8-topshiriq. Berilgan gaplarning kesimini sinonimlar bilan almashtiring.*

1. Nemislар, agar ularни amalga oshirishning har tomonlama kafolatlarini olmasalar, shartnomaga qo‘l qo‘ymaydilar. 2. Delegatsiya muzokaralarni to‘g‘ri, o‘z vaqtida olib bordi, reglamentga qat’iy rioya qildi. 3. Nemislар muzokaralarga juda jiddiy yondashadilar, humor va hazilga yo‘l qo‘ymaydilar. 4. Amerikaliklar hazilni tushunishadi va ularga yaxshi javob berishadi. 5. Britaniyaliklar hamkorning fikrini tinglaydilar va uning tashabbusiga bajonidil javob beradilar. 6. Nemislар hamma narsa sinchiklab tahlil qilinib, tekshirilgandagina qaror qabul qiladi. 7. Amerikaliklar vaqt va punktuallikni qadrlashadi.

*9-topshiriq.* Sodda gaplarni sinonimik murakkab gaplar bilan almashtiring.

1. Nemislarga qaror qabul qilish uchun ko‘proq vaqt kerak. 2. Nemislар muzokaralarga juda jiddiy yondashganidan muzokaralar jarayonida hazilga yo‘l qo‘ymaydi. 3. Ular kerakli natijaga erishishlariga ishonch hosil qilgandagina muzokaraga kirishadilar. 4. Amerikaliklar halollik va ochiqlikni qadrlaydigan odamlar bo‘lganidan har doim muzokaralarga tayyor bo‘ladi. 5. Yuqori professional saviya tufayli inglizlar barcha bahsli masalalarni yechishga muvaffaq bo‘lishadi. 7. Uchrashuv sanasi va dasturini kelishib, ingliz hamkorlaringizni kelishingiz haqida xabardor qilish shart emas.

Keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, taklif qilingan barcha gramma tik vazifalar ishlab chiqilayotgan mavzuning leksik materialiga asoslanadi. Talabalar lug‘atning tizimli tabiatini namoyon bo‘lishini ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar: semantik maydon, leksik-semantik va mavzuli guruhlar, sinonimik zanjirlar. Taklif etilayotgan vazifalar leksik birlikni xotirlash, uni boshqalar bilan, jumladan, so‘zni kengroq kontekstda birlashtirish va sintaktik darajada transformatsiyalar kabi harakatlarni bajarishni o‘z ichiga oladi. Berilgan barcha topshiriqlarni bajarib bo‘lgach, talabalar ushbu mavzu bo‘yicha muloqot masalalarini yechishga tayyor bo‘ladilar (10-topshiriq) (masalan, siz AQSH delegatsiyasini kutmoqdasiz. Uchrashuvga tayyorgarligingiz haqida bosqichma-bosqich aytib bering). Mavzu bo‘yicha ishni ijodiy topshiriqnı (11) bajarish orqali umumlashtirish taklif etiladi (masalan: 1. Ushbu matn uchun asosiy kalit so‘zlarni tanlab, slayd-shou tuzing. Mavzulardan biri bo‘yicha matn tuzing. “Har qanday ziddiyatni muzokaralar yo‘li bilan hal qilish mumkinmi?”, “Odamlar bilan muloqot qilish qobiliyati iste’doddan muhimroq”, “Avval sizni tushunishlari haqida emas, balki boshqalarni tushunish haqida o‘ylang” va hokazo). Psixologlarning ta’kidlashicha, mutlaq bir xillikka (tarkib bo‘yicha guruhning bir xilligiga) erishish mumkin emas. Talabalarning qobiliyatları bo‘yicha tenglik kamida 70% bo‘lgan guruh bir xil deb hisoblanadi (6, 54). O‘quv jarayonining maqsadi – har bir talabaning qobiliyatini, moyilligini maksimal darajada rivojlantirish, qiziqishlarini, ehtiyojlarini qondirish uchun sharoitlarni ta’minalash. Shuning uchun guruhning barcha talabalari bilim va faoliyat usullarini o‘zlashtirishning yuqori darajasiga erishadigan o‘quv jarayonini tashkil etishning shunday usullarini topish juda muhimdir. Turli darajali guruhda o‘zbek tilini chet tili sifatida o‘rgatishga mos keladigan turli darajadagi moslashuv matnlari yordamida kontingentning o‘ziga xos xususiyatlari va guruhning barcha talabalari faolligini ta’minalash va optimallashtirish mumkin. Matnlar muayyan muammolarni hal qilish uchun moslashtirilgan: matnlarda paydo bo‘ladigan tuzilmalar va belgilarning tarkibini ham, zarur leksik va gramma tik hodisalarning yetarli darajada takrorlanishini ta’minalashdan iborat. Matnni murakkab mashqlar tizimi bilan to‘ldirish muayyan mavzu doirasida leksik va gramma tik materialni rivojlantirishga yordam beradi. O‘zbek tili bo‘yicha turli darajadagi kompetensiyalarga ega bo‘lgan guruhda ishlashning tavsiya etilgan usuli har bir talaba o‘zini yetarlicha erkin his qilib, dars jarayonida faol ishtirok etishi uchun qulay sharoitni tashkil qilish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Полат Е.С. Метод проектов на уроках иностранного языка//Иностранные языки в школе. - № 2, 2000.
2. Ласкарева Е.Р. Прогулки по русской лексике. -Санкт-Петербург, 2010.
3. To‘xliyev B., Shamsiyeva M, Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Т.:O‘zYU Adabiyot, 2006.
4. Лапуцкая И.И. Синтаксическая синонимия: концепция, стиль техники. –Горки, 2012.
5. Abdunazarov O. Ona tili darslarida o‘qib tushunish, eshitib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish//Til va adabiyot ta’limi. -№2, 2022.
6. Ворожищева Н.Н. Технология разноуровневого обучения. -Омск, 2000.